

TARBIYACHI KITOBI

BARCHA YOSH
CURUHLARICA
TAVSIYA ETILADI

NUTQ O'SТИRISH



«ILK QADAM» DAV-
LAT O'QUV DASTURI
ASOSIDA TARBIYA-
LANUVCHILARNING
NUTQ, MULOQOT,
O'QISH VA YOZISH
KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA TA'LIMIY
FAOLIYAT ISHLAN-
MALARI



NASIBA ERXONOVA, ZUHRA RO'ZIYEVA

Nasiba ERXONOVA, Zuhra RO'ZIYEVA

Tarbiyachi kitobi

NUTQ O'STIRISH

Toshkent

«DAVR PRESS»

2021

Mazkur “**Tarbiyachi kitobi. Nutq o’stirish**” qo’llanmasi O’zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishiga qо’yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o’quv dasturi asosida tayyorlandi.

Mualliflar

Nasiba ERXONOVA,

“Maktabgacha ta’lim metodikasi va nazariyasi” jurnali bosh muharriri

Zuhra RO’ZIYEVA,

“Maktabgacha ta’lim metodikasi va nazariyasi” jurnali muharriri

Taqrizchilar:

Kamola Risqulova, Maktabgacha ta’lim vazirining davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi

Dilafruz Mahmudova, Maktabgacha ta’lim vazirligi Ta’lim jarayoni sifatini ta’minlash va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish boshqarmasi boshlig‘ining o’rinnbosari

Mavluda Rustamova, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasini katta o’qituvchisi

Shoista Sodiqova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti «Maktabgacha ta’lim metodikasi» kafedrasini dotsenti

Hurmatli kitobxon, aziz tarbiyachilar, mudiralar, metodistlar, maktabgacha ta’lim tizimining fidoyilar!

Mazkur “**Tarbiyachi kitobi. Nutq o’stirish**” zamонави мактабгача та’лим ташкілотининг гар бир педагог ходимига “**Ilk qadam**” мактабгача та’лим ташкілотининг Давлат о’кув дастурини амалга оширишда beminnat yordamchi bo’la oladi. “**Tarbiyachi kitobi. Nutq o’stirish**” kitobi мактабгача та’лим тизими педагогининг гар kunlik ish faoliyati uchun zarur bo’lgan nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalarini o’stirish bo‘yicha ta’limiy faoliyatlarda foydalaniш uchun mo’ljallangan. Qo’llanmadagi barcha mavzular “**Ilk qadam**” Davlat o’quv dasturi asosida davriyiliги va mavzular ketma-ketligiga ko’ra berilgan.

Barcha huquqlar amaldagi qonunlarga asosan himoyalangan.

“DAVR PRESS” nashriyot-matbaa uyining yozma ruxsatsiz ushbu nashri qisman yoki to’liq holda boshqa ommaviy axborot vositalarida elektron yoki mexanik ko’reinishda ko’chirib bosish, magnit tashuvchi vositalarda tarqatish qat’iy taqiqilanadi.

ISBN 978-9943-6294-3-1

© “DAVR PRESS” NMU, 2021

© Nasiba ERXONOVA, Zuhra RO’ZIYEVA, 2021

KICHIK GURUH

“Kichik Guruh” is a small group of students who have come together to learn about the Gurmat Sasthia and its spiritual significance.

The group consists of people from various walks of life, and they have come together to learn about the Gurmat Sasthia and its spiritual significance. They are interested in learning about the Gurmat Sasthia and its spiritual significance.

The group consists of people from various walks of life, and they have come together to learn about the Gurmat Sasthia and its spiritual significance.

The group consists of people from various walks of life, and they have come together to learn about the Gurmat Sasthia and its spiritual significance.

The group consists of people from various walks of life, and they have come together to learn about the Gurmat Sasthia and its spiritual significance.

The group consists of people from various walks of life, and they have come together to learn about the Gurmat Sasthia and its spiritual significance.



MEN VA MENING BOG'CHAM**MENING GURUHIMDAGI JIHOZLAR****Ta'limiylar faoliyat maqsadlari**

Ta'limiylar: tarbiyalanuvchilarning so'z boyligini oshirish, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish;

Rivojlanтирувчи: bolalarning tasavvur qilish va fikrlashlarini rivojlanтирish;

Tarbiyaviy: jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlanтирish.

Kerakli jihozlar: AKT, o'yinchoqlar, o'yinchoq idishlar to'plami.

Ta'limiylar faoliyatning borishi

Tarbiyachi: – Assalomu alaykum, mening quvnoq va qiziquvchan bolajonlarim! Bugun sizlar bilan xonamizdagi jihozlar haqida suhbatlashamiz. Qani, kim aytadi, xonamizda nimalar bor?

1-bola: – Xonamizda shkaf, kitob javoni, qo'g'irchoqlar, idish-tovoqlar, koptoklar bor.

2-bola: – Yana gilam, stol-stul, kartochkalar, turli o'yinchoqlar, karavotlar bor.

3-bola: – Xonamizda parda, televizor, koptok, o'yinchoq mashinalar, gullar ham bor.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, kelinglar, sizlar bilan o'yin o'ynaymiz. Har biringiz qo'lingizga shkafdan birorta buyum olasiz va aynan o'sha buyum qachon va qanday ishlatilishini aytib berasiz.

4-bola: – Mening qo'limda cho'mich bor. Cho'michni oyim ovqat suzganlarida ishlatadilar.

5-bola: – Mening qo'limda o'yinchoq mashina bor. Dadam mashinada bizni bog'chaga olib keladilar.

6-bola: – Mening qo'limda – kitob. Oyim bilan har kuni kitoblardagi rasmlarni tomosha qilamiz.

7-bola: – Mening qo'limda esa qoshiq, uning yordamida ovqat yeymiz.

8-bola: – Mening qo'limda piyola, unga choy, sharbat quyib ichamiz.

9-bola: – Mening qo'limda – qo'g'irchoq, men har kuni qo'g'irchoq o'ynayman.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, biz xonamizdagi har bir jihozdan foydalanamiz. Shuning uchun ularni asrab-avaylab ishlatishimiz zarur. Masalan, yumshoq ayyiqchaning oyog'ini uzib yuborsangiz, sizdan keyin bog'chaga keladigan uka laringiz o'ynolmay qolishadi. Idishlar jamlanmasini ham bir-biriga urmasdan ish

latishimiz zarur, toki narsa va buyumlar sizdan keyin boshqa bolalarga xizmat qilsin. Bolalar, bog'chamizni qanday avaylashimiz mumkin, qani, kim aytadi?

10-bola: – Xonalarni ozoda saqlasak, uni avaylagan bo'lamiz.

11-bola: – O'yinchoqlarni o'ynab bo'lib joy-joyiga qo'ysak, ularni asragan bo'lamiz.

12-bola: – Hovlidagi gullarni uzmashak, ularga suv quyib tursak, bog'chamiz chiroyli bo'ladi.

Tarbiyachi: – To'ppa-to'g'ri, bolajonlar, biz uyimizni qanchalik yaxshi ko'rsak, bog'chamizni ham xuddi shunday avaylashimiz zarur. Chunki u yerda o'zimiz vaqtimizni o'tkazamiz, o'yinlar o'ynaymiz. Hozir sizlarga Qudrat Hikmat qalamiga mansub "Bog'chamdagи bog'cham" nomli she'rni aytib beraman, sizlar esa diqqatingizni monitoroga qarating. Tasvirda sizga o'xshagan bir bola she'rda ifodalangan ishlarni bajarayotganini ko'rasiz.

BOG'CHAMDAGI BOG'CHAM

Qudrat Hikmat

Hovuzchadan zing'illab,
Suvni tashib bog'chamga,
Quydim bultur o'tqazgan,
Qandak o'rik, olchamga.

Undan keyin oq luchchak
Shaftoliga quydim suv.
Tupini sal silkitsang,
Pishganlari tushar duv.

Har ko'ksulton zo'ldirdek
Rang keltirib yetilar.
Shoxlar otib hammasi
Quyoshjonga intilar.

Tarbiyachi: – Bolalar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz. Men she'r aytib qo'lim bilan xatti-harakatlarni ko'rsataman, sizlar esa men bajarayotgan harakatlarni takrorlaysiz.

Quyon kabi sakraymiz, (*Qo'lllar ko'krak ustiga qo'yili, barmoqlar yarim yopiladi.*)

O'ngga, chapga qaraymiz. (*O'ng va chapga qaraladi.*)

Agar ehtiyyot bo'lmasak, (*Qo'lllar tushiriladi.*)

Bo'riga yem bo'lamiz. (*Qo'lllar orqaga qilib o'zlarini quchoqlaydilar.*)

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob beringlar-chi.

Nima uchun bog'chamizni ozoda tutishimiz kerak?

Uyimizni toza saqlash uchun nimalar qilishimiz kerak?

Guruhimizni yanada chiroyliroq bo'lishi uchun qaysi jihozlarning joyini o'zgartirsak bo'ladi?

TOSHKENT SHAHRI BILAN TANISHUV

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, nutqining ravon bo'lishiga yordam berish;

Rivojlantiruvchi: bolalarning so'z boyligini oshirish, ularda tasavvur qilish va xotirani rivojlantirish;

Tarbiyaviy: mehnatsevarlik, hamdardlik tuyg'usini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, poytaxting diqqatga sazovor joylarining suratlari.

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizni sevimli shoirimiz Anvar Obidjonning “Vatan” she'rini o'qish bilan boshlayman.

VATAN

Anvar Obidjon

– Senga bitta savol bor,
 Menga qulq sol, hoy qush.
 Vayronada yashaysan,
 Noming esa naq Boyqush,
 Ayt-chi, nahot sen boysan?
 – Asl boylik neligin
 Tushunmaysan chamasi.
 Bu vayrona bo'lsa ham,
 O'zimniki hammasi,
 Shuning uchun men boyman!

Tarbiyachi: – Bolajonlar, nima uchun qushcha o'zini boy deb o'yлarkan?

1-bola: – Chunki u o'z vatanida yashayapti. Bobomning aytishlaricha, har bir odam o'z vatanida yashasa undan boy odam bo'lmas ekan.

Tarbiyachi: – Balli, bolajon. Darhaqiqat, har bir inson uchun ona Vatanidan azizroq go'sha yo'q. Shuning uchun keksalar doim duo qilganlarida Vatan tinchli-

gini, yurt xotirjamligini so'raydilar. Uyga borganingizda kayfiyatizingiz ko'tariladi, sevimli xonadoningizda o'zingizni erkin sezasiz. Uyga bo'lgan mehringizniga ona Vatanga bo'lgan mehringiz deyishimiz mumkin. Endi diqqatingizni monitoriga qarating.

(Monitoroda "O'zbekiston" deb yozilgan yozuv va O'zbekistonning xaritasi tasvirlangan surat ko'rsatiladi.)

Tarbiyachi: – Bolajonlar, bizning yurtimiz – O'zbekiston, uning poytaxti esa Toshkent shahri hisoblanadi. Endi monitoriga qarang.

Birinchi suratdagi bino Amir Temur muzeyi. U poytaxtimizning diqqatga sazovor joylaridan sanaladi. Muzeyda buyuk bobomiz Amir Temur davlatiga oid juda ko'p qiziqarli eksponatlar bor. Bu yerga nafaqat respublikamizdan, balki chet ellardan ham mehmonlar keladi.

Ikkinci suratda esa Toshkent siti majmuasi tasvirlangan. Bu majmua o'zinging ajoyib dizayni bilan hammani lol qoldiradi. Daraxt va butulardan yasalgan ot, mashinalar sizga ham yoqadi.

Uchinchi suratda esa Xalqlar do'stligi saroyini ko'rib turibsiz. Saroya bir vaqtning o'zida to'rt ming nafar tomoshabin sig'adi.

Bu kabi chiroyli binolar hamma viloyatlar, shaharlarda ham qurilyapti. Bolalar, aytinlar-chi, binolarni kim quradi?

2-bola: – Bu binolarni quruvchilar quradi.

Tarbiyachi: – To'g'ri. Binolarni quruvchilar quradi, chizmasini esa arxitektorlar chizadi. Yana bo'yoqchilar binoni pardozlashda, duradgorlar deraza romlari, eshlklarni o'rnatishda yordam beradilar.

Bolajonlar, kelinglar, hozir sizlar bilan badantarbiya soatini o'tkazamiz. Men qushcha haqida she'r aytaman, sizlar esa xuddi qushdek xatti-harakat qilasizlar.

Men qushchaman kichkina, (*Ikkita qo'l orqaga qilinadi.*)

Tillarim chuchukkina. (*Tilni chiqarib o'ng va chap tomonga qaraladi.*)

Ola chipor qanotim, (*Qo'llar tepaga xuddi qanotdek qimirlatiladi.*)

Bilsangiz – chittak otim. (*Qo'llar pastga tushiriladi.*)

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi sizlar bilan o'yin o'ynaymiz. Men gapni boshlayman, sizlar esa ma'nosiga qarab yakunlashingiz kerak.

Men ona Vatanimni ... (yaxshi ko'raman)

Bizning o'lka juda ham ... (chiroyli)

Poytaxtimizda katta, chiroyli binolar... (ko'p)

O'zbekistonning poytaxti – ... (Toshkent)

Tarbiyachi: – Bolalar, endi esa mana bu savollarga javob beringlar:

Toshkentda qanday binolar bor ekan?
 Qaysi binoning ko'rinishi sizga yoqdi, nima uchun?
 Bino qurilishida qaysi kasb egalari ishlaydilar?
 Siz ko'rgan binolar necha qavatlari ekan?
 Amir Temur muzeyi ichida nimalar bor ekan?

MENING OILAM

Ta'limi faoliyat maqsadlari

Ta'limi: bolalarning so'z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: tarbiyalanuvchilarda oila bilan faxrlanish tuyg'usini kuchaytirish, o'yin yordamida mayda motorikasini rivojlantirish;

Tarbiyaviy: bolalarni guruh bo'lib ishslashga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: AKT, oilani ifodalovchi suratlar, hayvonlar o'yinchoqlari.

Ta'limi faoliyatning borishi

Tarbiyachi: – Assalomu alaykum, mening quvnoq bolajonlarim! Kayfiyatizingiz yaxshimi?

Bolalar: – Yaxshi.

Tarbiyachi: – Unda diqqatingizni monitoriga qarating. Tasvirda kimlarni ko'ryapsiz?

(*Monitorda oila surati ko'rsatiladi.*)

1-bola: – Suratda bobo, buvi, ota, ona va ikkita bola bor. Ular bir oila.

Tarbiyachi: – To'g'ri. Endi aytinlar-chi, sizlarning oilangizda kimlar bor?

2-bola: – Bizning oilamizda bobom, bувим, otam, onam va ikkita o'g'il bor.

3-bola: – Bizning oilada otam, onam, akam, men va ukam bormiz.

4-bola: – Bizning oilada otam, onam va men bormiz.

Tarbiyachi: – Barakalla. Har birimiz uchun oila muqaddas maskan. Biz oilada o'samiz, voyaga yetamiz. Oila a'zolarimiz esa bizga tiryak bo'ladilar. Qani, kim aytadi, oilaning boshi kim?

5-bola: – Ota.

Tarbiyachi: – Ota oila ustuni hisoblanadi. Bolajonlar, endi e'tiboringizni yana monitoriga qarating. U yerda bittagina daraxt tasvirlangan. Siz bir o'zingiz oila a'zolarisiz yashasangiz qanday bo'ladi, qani, kim javob beradi?

6-bola: – Oila a'zolarisiz yashash zerikarli bo'ladi. Men har kuni dadam bilan o'yinchoq mashinalarimni o'ynayman, ukamni o'ynataman. Bobom menga ko'p ertaklar aytib beradilar.

Tarbiyachi: – Demak, inson oilada ulg'aysa, mehr ko'rib o'sadi. Endi moni torda daraxtlar ko'paygan va ularning meva tugib xursand ekanligini ko'rishingiz mumkin.

Tarbiyachi: – Hozir hammamiz barmoqlarimiz yordamida o'yin o'ynaymiz. Men qaysi barmoq haqida gapirsam, o'sha barmog'ingizni ko'tarishingiz kerak.

Bosh barmoq juda kamtar,
Xuddi oyimga o'xshar.
Ikkinchisi bo'lsa-chi
Xuddi tarbiyachimga o'xshar.
Uchinchisi uzun akam,
Doim gerdayib yurar.
To'rtinchisi kamina,
Kamtarinman har ishda.
Jimjilog'im erkatoj,
Go'yo eng kichik ukam.

Bolajonlar, siz bitta barmog'ingiz bilan piyolani ko'tarib choy icha olasizmi? Qani, oldingizga qo'yilgan kartondan yasalgan piyolalarni bitta barmoqda ushlab ko'ringlar-chi.

(*Bolalar bitta barmoqda piyolani ushlolmaydilar.*)

Tarbiyachi: – Bolalar, ko'rdingizmi, bitta barmoqda piyolani ushlab bo'lmaydi. Agar hamma barmoqlarimizni birga ishlatsak, piyolani ushlab ko'taramiz. Xuddi shuningdek, odam ham bir o'zi rivojlana olmaydi. U oilasi bilan birga unib o'sadi, oila a'zolari bilan o'zini to'laqonli inson deb his qiladi.

Tarbiyachi: – Bolalar, oilangiz a'zolari ismlarini aytib bering.

Siz oilada nechanchi farzandsiz?

Oyijoningiz sizdan xursand bo'lishi uchun nimalar qilishingiz kerak?

DO-STING UCHUN SOVG'A TOP

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarga do'stlik haqida tushuncha berish, ularda tasavvurni rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: bolalarning so'z boyligini oshirish, ularning nutqi ravon bo'lishiga yordamlashish;

Tarbiyaviy: o'zaro hamdardlik tuyg'usini shakllantirish, mehnat qilishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: AKT, o'yinchoq hayvonchalar, turli sabzavotlar o'yinchoqlari.

Ta'limiylar faoliyatning borishi

Tarbiyachi: – Assalomu alaykum, qadrli bolajonlarim. Bugungi ta'limiylar faoliyatimizda biz “Do'sting uchun sovg'a top” mavzusida suhbatlashamiz. Bolalar, hozir men sizlarga hayvonlar suratlarini ko'rsataman. Sizlar esa ularning nomini aytib berishingiz kerak. Bu nimaning surati? (*Tarbiyachi ayiq suratini ko'rsatadi.*)

1-bola: – Bu ayiqning surati.

Tarbiyachi: – Bu nimaning surati?

(*Tarbiyachi quyon suratini ko'rsatadi.*)

2-bola: – Bu quyonning surati.

Tarbiyachi: – Bu suratda nima tasvirlangan?

3-bola: – Bu suratda mushuk tasvirlangan.

Tarbiyachi: – Juda to'g'ri aytyapsizlar. Hammangizning stolingizga bittadan o'yinchoq hayvon qo'yilgan. Sizlar ana o'sha hayvonlarni qo'lingizga olasiz va bu mening do'stim, u mana bu narsani yeidi deb aynan u yeydigan narsaning nomini aytishingiz kerak.

(*Bolalar qo'llariga o'zlarining oldilariga qo'yilgan hayvon o'yinchog'ini oladilar va uning nima yeyishini aytib beradilar.*)

4-bola: – Mening do'stim quyon, u sabzi yeydi.

5-bola: – Mening do'stim ayiq, u asal yeydi.

6-bola: – Mening do'stim mushukvoy, u sut ichadi.

7-bola: – Mening do'stim xo'roz, u don-dun bilan oziqlanadi.

8-bola: – Mening do'stim jirafa, u o'tlar bilan oziqlanadi.

9-bola: – Mening do'stim oq quyon, u ham o't, meva yeydi.

Tarbiyachi: – Barakalla. Do'stingiz nima yeyishini juda to'g'ri aytdingiz. Endi ertak tinglang.

Bir uuda chol va kampir, kichkina bola va mushukcha yasharkan. Oiladagilar ning hammasi mushukchani yaxshi ko'rishar va erkalatishar ekan. Bir kuni uy egalari mehmonga ketayotib, derazani yopishni unutishibdi. Ochiq deraza tokchasida o'tirgan mushukka ko'chadagi voqealar qiziq tuyulibdi. Ayniqsa, hovlida o'ynab yurgan qarg'a mushukka yoqibdi. Lip etib qarg'aning oldiga sakragan ekan, u uchib ketibdi. Bir o'zi qolgan mushuk u yoqqa o'tibdi, bu yoqqa o'tibdi. Bu orada qorong'i tushib, kun sovibdi. Lekin uy egalari qaytishmabdi. Qo'shni ayol muzlab qolgan mushukni va uyiga olib kiribdi.

Ayolning Asal ismli kichkina qizchasi bor ekan. Asal mushuk bilan o'ynashni xohlabdi. Mushukning boshiga uralibdi, dumidan tortibdi. Shunday qilsam mushukka yoqadi deb o'ylabdi-da. Bechora mushuk zorlanib miyovlabdi.

– Bu qizcha buncha qiyinaydi, boshim zirqillab, dumim uzilay deyapti. Bu men ga sira yoqmayapti, – deb qochib ketibdi.

Asal mushukchani quvlay boshlabdi. Lekin mushuk shkaf orqasiga yashirinib olibdi. Xafa bo'lgan Asal uqlab qolibdi. Tush ko'ribdi. Tushida mushukka aylanib qolgan mish. Mushuk esa Asalga aylangan emish. Endi mushuk qizni chunonam qiyabdiki, Asal mushuk bo'lmayman, boshqa mushuk bo'lmayman, qizaloq bo'lishni xohlayman deb uyg'onib ketibdi. Qarasa, karavoti tagida mushukcha uqlab yotgan ekan.

– Mushukcha, meni kechir, endi senga ozor bermayman, – debdi Asalxon.

Bolajonlar, sizlar ham hech qachon hayvonlarga ozor bermanglar. Qani, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz.

Men sizlarga H.Rahmatning "Quyoncha" she'rini o'qib beraman. Sizlar esa monitorga qarab, quyonchaning harakatlarini qaytaring.

QUYONCHA

H. Rahmat

Bola quyon
 Chopdi, chopdi,
 Bitta joydan
 Sabzi topdi.
 Voh-ey, voh-ey.
 O'jja sabzi –
 Qizil, asl.
 Yesa bormi,
 Tanga huzur.
 Oh-ey, oh-ey.
 Apil-tapil
 Chaynadi u.
 Loy ekan, vuy,
 Tfу, tfu.
 Voy-ey, voy-ey.

Tarbiyachi: – Bolalar, hozir sizlarga savollar beraman. Sizlar unga javob topishingiz kerak.

Mushuk doim nimani quvlab yuradi?

Ayiq nimani yaxshi ko'rib yeydi?

Uyingizda qanday uy hayvonlari bor? Ular nima bilan ozuqlanadi?

Sizga qaysi hayvon yoqadi?

KUZ BO'YOQLARI

O'LKAMIZDA OLTIN KUZ

Ta'limi faoliyat maqsadlari

Ta'limi: bolalarga kuzgi o'zgarishlar haqida tushuncha berish, turli o'yinlar yordamida ular nutqini rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirish, ularni topqirlilikka o'rgatish;

Tarbiyaviy: bolalarda jamoa bo'lib ishslash ko'nikmasini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, sariq, yashil barglar, kuzgi meva va sabzavotlar.

Ta'limi faoliyatning borishi

Tarbiyachi: – Assalomu alaykum, mening mehribon bolajonlarim! Bugun biz ta'limi faoliyatimizda oltin kuz haqida gaplashamiz.

Bolajonlar, kuz qaysi fasldan keyin keladi?

Bolalar: – Yoz faslidan keyin keladi.

Tarbiyachi: – Barakalla, endi diqqatingizni monitorga qarating. Unda teng-doshingiz shoir Tursunboy Adashboyevning “Kuz” she'rini ifodali o'qiydi, biz esa birgalikda tinglaymiz.

KUZ

Tursunboy Adashboyev

Yana xazonrezgilik,
Bog'lar rangi siniqdi.
Dilda hokim ezgalik,
Anhorda suv tiniqdi.
Oq yaktakli qayinlar
Taqdi yana zar baldoq.
Qushlarga gap tayinlab,
Chag'-chag'laydi zarg'aldoq.
Ufq esa lolagun,
Daraxtlardan rang olar.
Xayrlashib kuz bugun
Sochar oltin tangalar...

Tarbiyachi: – “Xayrlashib kuz bugun, sochar oltin tangalar” deganda shoir daraxtlardagi barglarga ishora qiladi. Bolajonlar, men bugun ertalab ataylab sizlar

uchun ko‘p barg terib keldim. Qani, kim mening yonimga kelib, barglarning rangini aytib beradi?

1-bola: – Bu barg yashil rangda ekan.

Tarbiyachi: – Demak, bu barg endi navbatli bilan sarg‘ayadi.

2-bola: – Bu barg sariq rangda ekan.

Tarbiyachi: – Ha, bu barg sarg‘ayib yerga tushgan. Kuzda, bolajonlar, hamma barglar sekin-asta sarg‘ayadi va to‘kiladi. Bu vaqtida biz barglarni sariq, zarg‘aldoq va biroz qizargan holatda ham ko‘rishimiz mumkin. Bilasizlarmi, bolajonlar, ko‘p yillik daraxtlarning barglari nihollarning barglariga qaraganda kattaroq bo‘ladi. Masalan, tok, anjir barglari yapaloq va katta. Tol, archa, o‘rik daraxtlarining barglari kichikroq bo‘ladi.

(*Shu payt xonaga qushlar kirib keladi.*)

Tarbiyachi: – Iya, bolalar, qarang, guruhimizga qushlar mehmon bo‘lib kelibdi. Ularga nima deymiz?

Bolalar: – Assalomu alaykum.

Tarbiyachi: – Xush kelibsiz, qushlar. Nimadandir xavotirdasiz, balki bizning yordamimiz kerakdir?

1-qush: – Mana kuz boshlandi, kunlar soviyapti, barglar to‘kilyapti. Yomg‘ir ham tez-tez yog‘adigan bo‘lib qoldi. Biz issiq o‘lkalarga uchib ketishimiz kerak. Har doim uchib kelganda bog‘changizdagи daraxtlarga qo‘nib sizlarni kuzatib turamiz. Judayam ziyrak va aqli bolajonlarni ko‘rib havasimiz keladi. Shuning uchun uchib ketishdan oldin sizlar bilan xayrashib ketaylik deb keldik.

Tarbiyachi: – Juda yaxshi qilibsizlar. Biz ham uchib ketganingizda sizlarni sog‘inib qolamiz. Qani, bolajonlar, qushlarga safar oldidan nima deyishimiz mumkin?

3-bola: – Manzilingizga sog‘-omon uchib boring.

4-bola: – Parvozingiz bexatar bo‘lsin.

5-bola: – Yana kelinglar, sizlarni kutamiz.

6-bola: – Sizlarni sog‘inamiz.

7-bola: – Yana ko‘rishguncha.

8-bola: – Sizlarni juda yaxshi ko‘ramiz.

9-bola: – Bahorda qaytib kelinglar.

10-bola: – Yo‘lda ehtiyoj bo‘linglar.

Tarbiyachi: – Barakalla, bolajonlarim. Qushlar, biz sizlarni yaxshi ko‘ramiz, baho kelganda yana qaytib kelishingizni intizorlik bilan kutamiz. Yaxshi boringlar.

(*Qushlar bolalar bilan xayrashib xonani tark etishadi, bolalar ularga qo‘l silkib qolishadi.*)

Tarbiyachi: – Bolalar, endi sizlar bilan birgalikda badantarbiya daqiqasini o'tkazamiz. Barchangiz o'rningizdan turib, qo'llingizni tepaga ko'tarasiz. Men barglar to'kildi desam barmoqlaringizni qimirlatib yerga o'tirib olasiz. Barglar o'sib chiqdi desam, o'rningizdan turasiz va qo'lllaringizni tepaga ko'tarib olasiz.

Tarbiyachi: – Bolalar, endi diqqatingizni yana monitorga qaratting. U yerda bolalar nima qilishayapti?

Bolalar: – Bolalar barglarni yoqishyapti.

Tarbiyachi: – Bu ish to'g'rimi?

Bolalar: – Noto'g'ri.

Tarbiyachi: – Bolalar, sarg'ayib yerga tushgan barglarni yoqish mumkin emas. Sababi xazonda juda ko'p changlar yig'iladi. Barglar yoqilganda chang zaharga aylanib havoda uchadi va atrofga tarqaladi. Gugurt o'ynagan bola kuyib qolishi, yong'inda qolib ketishi mumkin. Shuning uchun biz nima qilmasligimiz kerak ekan?

Bolalar: – Xazonni yoqmasligimiz, gugurt o'ynamasligimiz kerak.

Tarbiyachi: – To'g'ri. Bolajonlar, kim biladi kuzda qaysi meva va sabzavotlar pishadi?

11-bola: – Do'lana, anor, qovoq qishki qovun va tarvuzlar pishadi.

Tarbiyachi: – To'g'ri. Endi esa mana bu savollarga javob beringlar:

Kuz qaysi fasldan keyin keladi?

Kuzda ob-havo qanday bo'ladi?

Senga qaysi fasl yoqadi?

Kuzda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

SABZAVOT VA MEVALARNI FARQLASHGA O'RGATISH

Ta'limiy faoliyat maqsadlari

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarga meva va sabzavotlar haqida tushuncha berish, ularni farqlashga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: bolalarning so'z boyligini oshirish, ravon nutq tuzishni o'rgatish;

Tarbiyaviy: bolalarda jamoa bo'lib ishslash ko'nikmasini shakllantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, meva va sabzavot suratlari.

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: – Bolajonlar, assalomu alaykum, qo'g'irchog'imiz Malika kasal bo'lib qolibdi. Bolalar, u nega kasal bo'ldi ekan?

1-bola: – Sovuq suv ichgan bo'lsa kerak.

2-bola: – Qo'llarini sovunlab yuvmasdan ovqat yegan bo'lsa kerak.

3-bola: – Malika sovuq suv o'yagan bo'lishi kerak.

Tarbiyachi: – Malika vitaminli mahsulotlar yemagan ekan, shuning uchun ham kasal bo'lib qolgan. Organizmimiz sog'lom bo'lishi uchun biz vitaminlarga boy ovqatlar, meva va sabzavotlar iste'mol qilishimiz lozim. Hozir men mevalarning rasmini ko'rsataman, sizlar esa uning nomi va shaklini aytib berishingiz kerak.

Olma – qizil rangda, dumaloq, shirin.

Anor – mayda donalari bor, shirin, qizil rangda.

Limon – sariq, nordon ta'mli, oval shaklida.

Shaftoli – zarg'aldoq rangda, shirin, sersuv.

Nok – ko'k rangda, uzunchoq, qattiq.

Olxo'ri – ko'k rangda, suvli, dumaloq shaklda, shirin.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, mevalar daraxtda pishadi, sabzavotlar esa polizda yetiladi. Lekin ularning har ikkalasi ham biz uchun juda foydali va zarur. Hozir sizlarga sabzavotlarning suratini ko'rsataman, sizlar uning nomi va o'ziga xosligini aytib berishingiz kerak bo'ladi.

Tarvuz – dumaloq, shirin, qora urug'lari bor.

Qovun – uzunchoq, shirin.

Sabzi – sariq va qizil rangligi bor, xomligicha yeish ham mumkin.

Sholg'om – sariq rangda, sho'rvaga solinadi.

Kartoshka – po'sti artib ishlataladi, har xil turlari bor.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi esa diqqatingizni monitorga qarating. Unda meva va sabzavotlar ketma-ket ko'rsatiladi, siz suratga qarab, uning meva yoki sabzavot ekanligini aytasiz.

Gilos – meva

Pomidor – sabzavot

Bodring – sabzavot

Olcha – meva

Banan – meva

Piyoz – sabzavot

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi esa sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkaza-miz.

Biz bog'ga bordik. (*Turgan joyimizda 2 qadam yuramiz.*)

Bolg'achada yer chopdik. (*Egilib xayolan yerni chopamiz.*)

Dehqon bobomga yordam, (*Tik turamiz.*)

Gullarga ham suv quydik. (*Gulg'a suv quyish harakati.*)

Tarbiyachi: – Endi men topishmoqlarni o'qiymen, sizlar uning javobini va meva yoki sabzavotligini aytsiz.

Oramizda
Yo'q baxil,
Bir uyda ming
Do'st – ahil. (*Anor*)

Yashab yetmish yetti kun,
Kiyar yetmish yetti tun.
Kuzda uzib olinar,
Ovqatlarga solinar. (*Karam*)

Qizil rangda tuguncha,
Ichi to'la kulchacha. (*Pomidor*)

To'ni silliq, tuki yo'q,
Ichi qizil, ko'ki yo'q. (*Tarvuz*)

O'xshar qovun-tarvuzga,
Sip-silliq kiygan to'ni.
Ichi olov zar rangda,
Pishirib yeysan uni. (*Qovoq*)

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob bering:

Qo'g'irchoq Malika sog'lom bo'lishi uchun nimalar yeyishi kerak ekan?

Mevalar qayerda o'sadi?

Sabzavotlar qayerda pishib yetiladi?

Olcha mevami yoki sabzavot?

Mana bu so'zlarni davom ettiring.

Qovun – ... (*tarvuz*)

Olma – ... (*nok*)

Bodring – ... (*pomidor*)

Kartoshka – ... (*piyoz*)

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi men sizlarga sevimli shoirimiz Anvar Obidjonning "Uzum" she'rinini ifodali o'qib beraman.

UZUM

Anvar Obidjon

Donalarim –
Marjoncha.
Bir boshim,
Naq bir jomcha.
Quritsangiz –
Mayizman,
Dasturxonga
Fayzman.
Kuzda
Yeb-yeb to'yishar:
Qishga osib qo'yishar.
Boqar shod,
Yosh-qarilar,
Maqtar,
Hatto arilar.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, ta'limi faoliyatimiz so'ngida mana bu savollarga javob beringlar:

Olma, nok, uzum, shaftoli bular... (mevalar)

Kartoshka mevami yoki sabzavot?

Karam qanday rang va shaklda?

Biz nima uchun meva va sabzavotlarni iste'mol qilishimiz kerak?

AJOYIB NON TURLARI

Ta'limi faoliyat maqsadlari

Ta'limi: tarbiyalanuvchilarga nonning azizligi haqida tushuncha berish, ularni nonni asrab-avaylashgiga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi: hikoyalari aytish va "gapni davom ettir" o'yini orqali tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirish;

Tarbiyaviy: bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, turli nonlar, novvoy surati.

Ta'limi faoliyatning borishi

Tarbiyachi: – Assalomu alaykum, mening qiziquvchan bolajonlarim! Bugun biz sizlar bilan eng aziz ne'matlardan biri non haqida suhbatlashamiz. Bolajonlar, kelinglar, ta'limi faoliyatimizni rivoyat bilan boshlasak.

Qadimda ikki odam birga safarga chiqishibdi. Karvon yo'lidan adashibdi, safarga chiqqanlar yo'lda uzoq qolib keishibdi, ularning zaxira oziq-ovqatlari tugabdi. Shunda bir odam bir xalta tillasini olib chiqibdi-da, menga bir bo'lak non bergan odamga mana shu tillamni berishga tayyor edim, debdi. Lekin hech kim unga non bermabdi, chunki hech kimda non qolmagan ekan-da!

Ko'rdingizmi, bolalar, bir bo'lak non o'rnnini tilla ham bosa olmaydi.

Bolajonlar, nonni kim pishirishini bilasizlarmi?

Bolalar: – Nonni novvoy pishiradi.

Tarbiyachi: – Juda to'g'ri, mana bu suratda novvoy tasvirlangan. Novvoyni kim suratga qarab ta'riflab bera oladi?

2-bola: – Novvoy oq yaktak kiygan, oldiga esa fartuk taqib olgan. Boshiga ham paxtali matodan ro'mol o'rab olgan. Bobomning aytishicha, tandir issiq bo'lgani uchun boshga biror narsa o'rash kerak ekan. Novvoy endi tandirga non yopgan, ikki chekkasidan ter oqyapti, yuzlari qizargan.

Tarbiyachi: – Bolalar, darhaqiqat, novvoy juda ko'p ter to'kadi. Hamma uyqudaligida u saharda xamir qorib, odamlarga non yetkazib berish harakatini qiladi. Bolalar, biz novvoyga nima deyishimiz kerak?

Bolalar: – Rahmat.

Tarbiyachi: – Juda to'g'ri. Endi esa, monitorga qarang va u yerda tasvirlangan suratlardagi qaysi narsalar aynan non pishirish uchun kerak bo'lishini aytинг.

(Bolalar monitorga qarab un, yog', suv, tuz non uchun kerakligini aytadilar.)

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o'tkaza-miz.

Tasavvur qiling, biz majnuntolmiz. Suv bo'yida o'sayotgan yam-yashil majnun-tol. Qo'llarimizni ochamiz, go'yoki novda kabi yerga egamiz. Yana qo'llarimizni yig'ib olamiz va yana ochamiz. Bu harakatni ikki martadan qaytaramiz.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi "gapimni davom ettir" o'yinini o'ynaymiz.

Non bizning rizqimiz.

Uni yerga ... (tashlamang).

Nonni uvol qilish. .. (yaxshi emas).

Non eng aziz (ne'mat).

Non yopuvchilarni biz ... (novvoylar) deb ataymiz.

Non ... (undan) tayyorlanadi.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, kim qanday non turlarini biladi?

3-bola: – Yopgan non bor, buxanka non bor.

4-bola: – Javdari non bor, piyozli non bor.

5-bola: – Menga buvim yong'oqli non pishirib beradilar.

6-bola: – Mening oyim esa go'shtli non pishirib beradilar.

Tarbiyachi: – Endi orangizdan bitta bola chiqadi, uning ko'zini yopamiz va u bizga ko'zi yumuq holda yeb ko'rib, uning qanday nonligini aytishi kerak.

(*Guruhdagi bolalar ko'zlari yumuq holda non bo'lakchalarini yeb ko'rib, qanday non ekanligini aytib beradilar.*)

Tarbiyachi: – Bolajonlar, biz nonning qaysi turini yemaylik, asosiysi uni e'zozlashimiz, ushog'ini ham yerga to'kmasligimiz zarur. Axir eng shirin taom ham, biz yoqtirgan shirinlik ham bizni biroz vaqtga xursand qiloladi. Non esa har kunlik hamrohimiz. Shuning uchun keksalarimiz biror joyga ketayotgan insonga hamroh bo'lsin deb, ro'molga non tugib qo'shib beradilar.

Qani, endi mana bu stol yoniga kelinglar va undagi buyumlardan non pishirish uchun kerak bo'ladiganlarini ajratib, undan qanday foydalanishimizni aytib beringlar.

7-bola: – Bu elak, un elakda elanadi.

8-bola: – Bu chakich. Unda nonning o'rtafiga urib olamiz.

9-bola: – Bu tandirning surati. Tandirga non yopiladi.

10-bola: – Bu tuz, u non xamiriga solinadi.

11-bola: – Bu tuxum, u non yuziga surtiladi.

12-bola: – Bu sedana, u non ustiga sepiladi.

Tarbiyachi: – Bolajonlar, endi shoir Po'lat Mo'minning non haqidagi she'rini o'qib beraman.

Chin fazilat topdi dehqon non bilan,
Dilda shodlik, belda darmon non bilan,
Siylanarkan barcha mehmon non bilan,
Ahli inson surdi davron non bilan.

Tarbiyachi: – Bolalar men hozir savollar beraman. Sizlar unga javob berishingiz kerak.

Ko'chada nonning ushog'ini to'kib yeish mumkinmi?

Non pishiruvchilarni kim deb ataymiz?

Non pishirish uchun bizlarga nimalar kerak bo'ladi?

Nonni yerga tashlash mumkinmi?

MUNDARIJA

KICHIK GURUH

MEN VA MENING BOG'CHAM

Mening guruhimdag'i jihozlar	4
Toshkent shahri bilan tanishuv.....	6
Mening oilam	8
Do'sting uchun sovg'a top	9
Kuz bo'yoqlari	12
O'l kamizda oltin kuz.....	12
Sabzavot va mevalarni farqlashga o'rgatish	14
Ajoyib non turlari.....	17
Transport, ko'cha harakati qoidalari, hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari.....	20
Transport turlari bilan tanishtirish.....	20
"Predmetlarni rangiga ko'ra ajrat" o'yini	22
Kimga qaysi kasb kerak?	25
Uy hayvonlarini ajratishga o'rgatish.....	28

QISH

Qish bilan tanishhamiz.....	30
Buni qachon ishlatalamiz?	32
Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz	35
Yangi yil nima?	37

BOLALAR BOG'CHASI

Qishki o'yinlar	39
"Ortiqchasini top" o'yini.....	40
Kim bo'lsam ekan?	41
Men va mening tana a'zolarim	43
Nima yetishmayapti?" didaktik o'yini	44
Odobli bola.....	45

JONLI VA JONSIZ TABIAT OLAMI

"S" va "Z" tovushlari ustida ishlash	47
"Juftini top" o'yini	49
Kichik hikoyalar tuzish	49

BAHOR CHIROYI

"Oyijon" hikoyasini o'qib berish	51
Top-chi, men kimman?	53
Yer sayyorasi – umumiy uyimiz	55
Quyoshnikida mehmonda	55
"Sholg'om" ertagini o'rganish	57
Daraxtlar bilan tanishhamiz	60
O'yinchoqlarga g'amxo'r munosabat	62

Men va mening oilam	64
Mebel haqida nimalarni bilasiz?	66
“Rasmlarni kesib oling” didaktik o‘yini	67

O’RTA GURUH

O’ZBEKISTON – MENING VATANIM

O’zbekiston – mening vatanim	70
O’zbekiston haqida she’r yodlatish.....	72
“Mening ona shahrim” muvzusida hikoya tuzish.....	74
Transport bilan tanishamiz.....	76
Men va mening oilam	78

KUZ

Nima qayerda o‘sadi?	80
Meva va sabzavotlarni ajratamiz	82
Non qanday paydo bo‘ladi? Donlar bilan tanishtirish	85
Non haqida hikoya va suhabat.....	87
Paxtadan nima tayyorlanadi?	89
Paxtakorlar mehnati	91
Jarangli va jarangsiz tovushlarni farqlash.....	92
Har xil transport turlarida sayohat qilamiz	94
Rangli svetofor mavzusida hikoya tuzish	97
O’t o‘chiruvchilik kasbi	99
“Kuz” mavzusida tasviriy hikoya tuzish.....	102

HAYDOVCHILIK KASBI

Pochtachilik qanday kasb?	104
Nima miyovladi? Hikoya tuzish	106
Qaysi so‘z adashib qoldi?	108
Hikoya “Qishki kiyimlar”	109
Qachon qor yog‘adi? Hikoya tuzish	112
“Halollik” o‘zbek xalq ertagini hikoya qilish	115
“Sher bilan sichqon” ertagini hikoya qilish	116
Yangi yilda archa bayramini qanday o‘tkazdim? Hikoya qilish	118
Qish haqida topishmoqlar	121
Qishki manzara mavzusida hikoya tuzish.....	123
Mening sevimli armiyam	125
Biz askarlarmiz	127
Mening o‘yinchog‘im	131
“Mening qo‘g‘irchog‘im” mavzusida jamoa bilan hikoya tuzish.....	133
Mening bog‘cham	135
Oshpaz opa mehmonda	138
S. G‘afurovning “Yig‘loqi” hikoyasi	140

Qarg'a o'ziga do'st qidirmoqda	141
Alisher Navoiy portreti bilan tanishuv	144
Navojiy va Boyqaro	146
Abdulla Avloniyning "Yomon do'st" asarini qayta hikoya qilish	146
"Qaysar kuchukcha" surati asosida suhbat. Uy hayvonlarini ajratishga o'rgatish	148
Soatda kim yashaydi?	151
"Nima yo'q?" ta'limi o'yini	153
Pokiza bo'lamiz	154
"Bahor keldi" tasviri asosida hikoya	156
Ona haqida	159
N. Polyakovaning "Bahor yomg'iri" she'rini yod olish	160
"Navro'z bayrami" mavzusida suhbat	162
S. G'ofurovning "hidi yoqadi, arisi chaqadi" hikoyasini o'rganish	164
Abdulla Avloniyning "Bolari ila pashsha" asarini qayta hikoya qilish	165
Nurxon Rayimovaning "Yalpiz" hikoyasini o'rgatish	167
Oyga sayohat	169
Transport ta'rifi	172
"To'rtinchisi ortiqcha" didaktik o'yini	173
"J" tovushi	176
Hayvonot olamida	179
"Mushuk va mushukchalar" rasmi bo'yicha suhbat	181
"Mening uyim" mavzusida suhbat	183
Uydagi mebel	185
Mebel bo'yicha hikoya tuzish	187
Idish-tovoqlar	189
Maishiy asboblar	191

KATTA GURUH

Vatan mavzusidagi surat asosida suhbat	194
Yurtimiz shaharlari	196
Mening qadrdon uyim	198
"Chirolyi uycha" ertagi asosida hikoya tuzish	200
Kim nima bilan band?	202
"Mening qadrdon uyim" rasmi asosida suhbat	205
Do'stlar haqida she'r va hikoyalari	207
"Kuz" syujetli rasmi asosida suhbat	209
Kuz haqida topishmoq va tez aytishlarni o'rganish	211
Bog'da va dalada nimalar yetishtiriladi?	213
Nonni qanday asrashimiz mumkin?	216
Non nimadan tayyorlanadi?	218
Paxtakorlar mehnati haqida suhbat	219

Rasmlar asosida yo'l harakati qoidalari haqida suhbat.....	222
Konstantin Olenovning "Qizil mashina" she'rini o'rganish.....	224
Kim o'zining kasbi haqida yaxshi so'zlaydi?	225
"Yog'-yog'aver, oppoq qor" she'rini o'qish	227
"Mening huquq va burchlarim" mavzusida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlangan suhbat.....	229
K. Chukovskiyning "Sehrli tog'ora" ertagi asosida suhbat	231
Sport haqida albom yoki slayd tomosha qilish	236
Mavsumiy ustki bosh va kiyimlar.....	237
O'zbek milliy liboslari – slayd asosida suhbat	240
Biz archa bayramiga tayyorlandik	241
"Qor yog'moqda" mavzusi bo'yicha rasmlar asosida suhbat	243
Chegarachilar, askarlar, uchuvchilar rasmlari asosida hikoya tuzish.....	244
Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi siymolari bilan tanishtirish.....	246
Gigiyena mavzusida ko'rgazma va rasmlar asosida suhbat.....	248
Nima yaxshi-yu, nima yomon?.....	251
Muloyim so'zlar bilan chaqiramiz.....	255
Shaharning diqqatga sazovor joylari aks etgan suratlarga qarab hikoya tuzish.....	257
Hayvonot bog'iga sayohat	259
"O'n ikki oy" ertagini hikoya qilish.....	261
Sevimli kitoblar.....	265
Onamning surati mavzusida suhbat	267
Sehrli so'zlar mavzusida suhbat.....	270
Navro'z bayrami haqida suhbat	272
Hasharotlar	274
"Bahor keldi" mavzusida hikoya tuzish.....	277
Qushlar haqida topishmoqlar	279
"Koinot" mavzusida suhbat	281
Mirzo Ulug'bek siymosi bilan tanishtirish	284
Koreys xalq ertagi	287
K. Chukovskiyning "Fedora qayg'usi" ertagi asosida suhbat	289
"Mening oilam" mavzusida suhbatlashish.....	295
Xotira va qadrlash mavzusida suhbat	297
Mebel haqida nimalarни bilamiz?.....	300
Idishlarni ajratamiz	302
Men dadamga yordamchi mavzusida suhbat	304

TAYYORLOV GURUH

Vatanimizning tarixiy shaharlari: Samarcand, Buxoro, Xiva	308
"To'rtinchisi ortiqcha" didaktik o'yini.....	310
Mening oilam – mening qo'rg'onim.....	312

Do'st haqida hikoya	314
Kuz	317
Bog'da va tomorqada nimalarni o'stiramiz?	319
Nonni qanday asrashimiz mumkin?	321
Eng qimmatli narsa	322
Paxtakorlar mehnati haqida suhbat	323
Men piyodaman	325
Xavfli buyumlar	328
Iurli-tuman kasblar, hunarmandlar shaharchasi	329
"Bu qachon sodir bo'ladi?", "Qish haqidagi rasmlarni to'pla" didaktik o'yinlari	331
"Qish haqidagi rasmlarni to'pla" didaktik o'yini	333
Rasmda qanday sport turi tasvirlangan? "Qanday so'z mos kelmaydi?" didaktik o'yini	333
Mavsumiy kiyim-bosh, o'zbek milliy liboslarini ko'zdan kechirish	335
"Rasmlarni ma'nosiga ko'ra qo'yib chiq" didaktik o'yini	337
Qish tasvirlangan rasm asosidagi hikoya	339
Bizning armiya, harbiy kiyimlar	341
Sog' tanda – sog'lom aql	343
Nima yaxshiyu, nima yomon? "Yaxshi odatlar" suratlarini tomosha qilish	345
Shaharning diqqatga sazovor joylari aks etgan suratlarga qarab hikoya tuzish	347
Dunyo mamlakatlariiga sayohat	349
Kerakli tovushli so'zni top", "o'zing o'ylab top" ta'limi o'yinlari	353
Bahor suratiga qarab hikoya tuzish	355
Bahor fasli	356
Pizzlarni yig'ib suratlarni tasvirlab ber ta'limi o'yini	357
Hasharoqlar olami	358
Gullaydigan daraxtlar rasmlarini ko'zdan kechirish	361
Yer sayyorasi	363
Xalqaro Yer sayyorasi kuni, suv haqidagi maqollar	365
Xotira va qadrlash kuni" mavzusida suhbat	367
Mebel haqida nimalarni bilamiz? Milliy hunarmandchilik	369
Foydali ish	370
K. Chukovskiyning "Fedorino qayg'usi" asarini o'qish	371
Maishiy anjomlar – bizning yordamchilarimiz	377

Nutq o'stirish kitobini to'liq holida olish uchun murojaat qiling:

Kitob narxi: 15 ming so'm

Biz bilan bog'lanish:



Telegram kanalimiz:

Kanal [@maktabgacha_TT](https://t.me/maktabgacha_TT) yoki



Admin → [@hujjat1bot](https://t.me/hujjat1bot)

Admin
↓

Shokirjon 91-397-77-37



To'lov uchun: UZCARD *880*8600 0609 4180 8876*summa#

HUMO *880*9860 0803 8650 5368*summa#

DIQQAT!!!

Sizga buni omonat qilib beramiz.

Faqat o'zingiz uchun
foydalaning.

Kanal va gruppalarga
tarqatmang.